

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
“ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV” FAKULTETI
“MENEJMENT” KAFEDRASI**

5230200 – Menejment bakalavr ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Rejalashtirish – ishlab chiqarishni samarali boshqarish jarayoni
sifatida (“Uzsungwoo” MCHJ qo‘shma korxonasi misolida)**

Talaba:

Muhtorov Azizbek Zahriddin o‘g‘li

Bitiruv malakaviy ishiga

raxbar-maslahatchi:

Ibragimova Fazilatxon Saidqosimovna

Bitiruv-malakaviy ishi 2014 yil ____ iyun kuni dastlabki
ximoyadan o‘tgan. “Menejment” kafedrasining 2014 yil
____ iyun kungi (№ ____ sonli majlis bayoni) yig‘ilishi
qaroriga asosan himoyaga ruxsat berilgan

Farg‘ona – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-bob. ISHLAB CHIQUARISHNI SAMARALI BOSHQARISHDA REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI.....	5
1.1. Rejalashtirish tushunchasi, turlari va mohiyati.....	5
1.2. Rejalashtirishni oqilona tashkil qilinishing ishlab chiqarishni samarali boshqarishga ta'siri.....	11
2-bob. MCHJ “UZSUNGWOO” QO‘SHMA KORXONASIDA REJALATIRISH VA ISHLAB CHIQUARISHNI SAMARALI BOSHQARISHNING TAXLILI.....	20
2.1. MCHJ “UZSUNGWOO” qo‘shma korxonasida rejalashtirishni takomillashtirish taxlili.....	20
2.2. MCHJ “UZSUNGWOO” qo‘shma korxonasida ishlab chiqarishni rejalashtirish va uni bajarilish taxlili	33
2.3. MCHJ «UZSUNGWOO» qo‘shma korxonasining 2011-2013 yillardagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining taxlili	39
3-bob. MCHJ “UZSUNGWOO” QO‘SHMA KORXONASIDA REJALASHTIRISH VA ISHLAB CHIQUARISHNI SAMARALI BOSHQARISHDA MEHNAT RESURSLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI.....	46
3.1. MCHJ “UZSUNGWOO” qo‘shma korxonasida ishlab chiqarishni rejalashtirishda mehnat resurslarining o‘rni.....	46
3.2. MCHJ “UZSUNGWOO” qo‘shma korxonasidagi ishchilar ish vaqtini rejalashtirish va uni ishlab chiqarishni samarali boshqarishdagi ahamiyati.....	51
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	59
ILOVALAR.....	60

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish – ishlab chiqarishni samarali boshqarishda maqsad ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, kapital mablag‘ni tejab-tergab ishlatish natijasida qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi va samaradorlikni o‘shishga erishish hamda mahsulot tannarxini kamaytirish va sifatni oshirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining maqsadi va vazifasi. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi korxonani rejalashtirish va uni ishlab chiqarishni samarali boshqarishda ko‘rib chiqish va uni o‘rganishdan iborat.

Oldimizga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- korxona barqarorligini ta'minlashda rejalashtirishning ahamiyati;
- bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lgan korxonasida rejalashtirish, ishlab chiqarishni samarali boshqarishini o'rganish va baholash;
- korxonani rejalashtirish va ishlab chiqarishni samarali boshqarishda mehnat resurslarining o'rnini va ahamiyatini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining ob'ekti va predmeti. Ishning ob'ekti bo'lib MCHJ "UZSUNGWOO" qo'shma korxonasi hisoblanadi.

Korxonaning rejalashtirish – ishlab chiqarishni samarali boshqarish masalalari - ushbu bitiruv malakaviy ishining predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining ilmiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasidagi amaldagi Qonunlari va Qonun osti hujjatlari, Prezident I. A. Karimovni Qarorlari va Farmonlari, Oliy Majlis va Vazirlar Maxkamasining Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari bitiruv malakaviy ishning uslubiy asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy yangilik. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, korxona ishlab chiqarish faoliyatini sifat jihatdan yaxshilash, korxonani o‘shish sur’atlarini

barqarorlashtirish, va uni samarali boshqarishda hamda to'g'ri rejalashtirishni ahamiyati o'rganildi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Korxonalar faoliyatini to'g'ri rejalashtirilganligi va korxonada mehnat resurslarini to'g'ri boshqarish ahamiyatini yoritib berish, bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyatini aks etiradi. Ishlab chiqarish va rejalashtirish ma'lum ko'rsatkichlar tizimi, ya'ni topshiriqlar majmui tariqasida aks ettiriladi. Ular rejaning asosiy g'oyasi, maqsadi va vazifalarini ifodalaydi hamda natijalarini tavsiflaydi. Ko'rsatkichlar yordamida bir qator funksiyalarni baholash, hisob-kitob qilish va topshiriqlarning mutanosibligini ta'minlash mumkin

Bitiruv malakaviy ishning uslubiy asoslari. Ishlab chiqarish menejmenti faniga oid maxsus mamlakatimiz va horij mamlakatlarida chop etilgan ilmiy adabiyotlar, jurnal va gazetalar, internet ma'lumotlari xizmat qiladi.

Ishning axborot bazasi. Axborot bazasi sifatida MCHJ "UZSUNGWOO" qo'shma korxonasi mahlumotlaridan, korxonaning moliyaviy va buxgalteriya xisobotlaridan foydalanildi.

.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan murakkab islohatlar davomida iqtisodiy va siyosiy va ijtimoiy hayotimizda ma'lum bir muammolarga duch kelmokdamiz. Mamlakatda iqtisodiy ahvolini yaxshilash, iqtisodiyotga yangi sifat berish, barqaror o'sish sur'atlarini tezlashtiruvchi yagona asos bu ishlab chiqarishni to'g'ri rejalashtirish va uni oqilona boshqarishdan iborat.

Farg'ona shahrida Asakadagi «GM-UZBEKISTAN» qo'shma korxonasiga butlovchi qismlar yetkazib beradigan «UZSUNGWOO» O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi ishga tushirildi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, xorij investitsiyalarini jalb etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Mahalliyashtirish dasturining izchil joriy etilishi mamlakatimizda mavjud xomashyo negizida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini bermoqda. Mazkur yirik loyiha ham ana shu yo'nalishdagi ishlarning mantiqiy davomidir. Qo'shma korxonaning ochilishida davlatimiz rahbari tomonidan asos solingan O'zbekiston avtomobilsozlik sanoati xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining ramziga aylangani tahkidlandi. Korxona rivojlanishda davom etmoqda va yangi butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni ham o'z navbatida rejalashtirmoqda.

Korxonaning yana bir yutuqlaridan biri uning strukturasi, rejalashtirish, boshqaruv uslublaridan to'g'ri va oqilona foydalanishi, barcha vositalardan unumli foydalanishi, va ajoyib kadrlar bilan ishlayotganidir. Korxonada ishchilarga ertalab uyushtiriladigan jismoniy mashqlar ishchi hodimlarga psixologik jihatdan yordam beradi bu esa o'z navbatida ishning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari hodimlar o'rtasidagi munosabat ham ijobiydir. Hodimlar bir – biriga yordam beradi.

Hozirda avto mashinalariga bo'lgan talab kundan kunga oshib bor-moqda bu esa buyurtmani ham oshiradi. Korxonani imkoniyatlaridan biri uni asosiy vositalarini

yangi va ixchamligidir ya'ni har qanday shtamplashgan detallarni ishlab chiqara oladi.

Mazkur qo'shma korxonada 453 yangi ish o'rni yaratildi bo'lib, xozirda 550 nafarga yetgan. Loyihaning amalga oshirilishi natijasida yiliga 82,7 million AQSH dollari miqdorida mahsulot ishlab chiqarilib, 25 million dollar miqdoridagi valyuta tejalishiga erishilgan.

Ishlab chiqarishni esa yangi avto mashinalarni detallari bilan kengaytirib yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Korxonada kadrlar haqida gap ketganda ular malakasi hisoblanadi. Kadrlarni rivojlantirish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, xozirda korxonaning 14 ta hodimlari Janubiy Koreyada o'z malakasini oshirishmoqda hamda bir yilda bir marta o'rta va quyi bo'g'in ishchi xodimlari malakasi oshirilib boriladi.

Korxonalar va ularning raxbarlari atrofdagi o'zgarishlarga oddiy e'tibor beribgina qolmasdan ilmiy asoslangan usullar asosida bu o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish va korxonani shu sharoitlarga moslashtirish boshqarishlari zarurdir. Bu vazifalarni amalga oshirish borasida rahbarlarning kelajagni ko'ra bilishi, asoslangan aniq ma'lumotlar asosida rejali qarorlar qabul qilishni taqozo etadi. Kuchli raqobat va aholi turmush darajasi qancha yuqori bo'lsa, shunchalik ishlab chiqarishni rejalashtirish tanlash og'ir kechadi.

1. Xodimlarni chet elga malakasini oshirish uchun o'qishga jo'natish! Bunda asosiy e'tibor ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga qaratiladi. "COBALT" avtomobilini presslovchi qisminidagi detallar yanada sifatli qilib ishlab chiqrish mumkin.

2. Elektron doskalar joriy qilish! Elektron doskalar joriy qilishdan asosiy ko'zlangan maqsad ishchilarni o'z ishiga bo'lgan faolligini oshirish. Ularga motivatsion rux berish. Bu elektron doskalarni imkon qadar ishlab chiqarish sexlarini oldi kirish eshiklari oldiga joylashtirish. Elektron doskalar ishchilarni tug'ilgan kunlarida va hafta, oy davomida eng faol ishlagan ishchilarni ism

familiyasi ko‘rinib turishi hamda oy oxirida ularni namunali ishi uchun, faolligi, tirishqoqligi uchun korxona tomonidan rag‘batlantirilib borilishi.

3. Payvandlash sexida ishlaydigan ishchilarga 2 maxal qatiq berish! o‘z navbatida bu qilingan xarakat ishchi xodimlarni sog‘ligini uchun foydali hisoblanadi.

4. Mamalakatimizda injiner texnologlar yetishtirib chiqarish! MCHJ “UZSUNGWOO” qo‘shma korxonasida “ COBALT ” avtomobiliga qoliplovchi ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi va korxonada ishlab chiqaruvchi texnologiyalar ham aynan shunga moslashtirilgan. Agar “ GM ”dagi konvier boshqa avtomobilga o‘zgartirilsa, unda korxonadagi texnologiyalarni boshqa avtomobilni ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishga moslashtirib sozlash uchun yuqori malakali kadrlar kerak bo‘ladi. Masalan: Xozirda Damas avtomobiliga ham ehtiyot qismlar ishlab chiqarilmoqda, shu ehtiyot qismni ishlab chiqarish uchun korxonada 6 oy vaqt ketdi stanoklarni shu ehtiyot qismni ishlab chiqarishga moslashtirish uchun.

5. Ishchilarga ishdan 10-15 daqiqali tanaffuslar ajratish! Sexga stol tennislari, basketbol savatchalari o‘rnatish, vaqtinchali valebol maydonchalari tashkil qilish. Ishchilarga madaniy xordiq berish ishchilarni ishga bo‘lgan zerikishlarini kamaytirib, ishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

6. Korxonada ishlab chiqarilgan detallarni asosiy hom ashyo pulat rulonlar hisoblanadi. Bu stanoklarga moslab hom ashyo kesib beriladi. Lekin kesish ishlari Andijonda va Namanganda amalga oshiriladi. Shu stanoklarni korxonaga olib kelib hom ashyoni kesish ishlari aynan korxonada amalga oshirish taklifi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: - 2010.
 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi iqtisodiyot va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni. 2005 yil 21 iyul. “Xalq so‘zi”, 2005, 23 iyul.
 3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.
 4. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma – bosqich va barqaror rivojlanishini ta‘minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T.: O‘zbekiston, 2008.
 5. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - T.: O‘zbekiston, 2010.
 6. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. - T.: O‘zbekiston, 1996.
 7. Abdukarimov B.A. Korxona iqtisodiyoti- T.: “Fan” nashriyoti, 2005.
 8. Akramov A.E. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003 .
 9. Vaxobov A.V., Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv taxlili. – T.: SHarq, 2005.
 10. Zaynundinov SH.N va boshqalar Menejment asoslari. – T.: Moliya, 2001.
 11. Ortiqov A. Ishlab chiqarishni tashkil qilish. - T.: TDIU, 2004.
 12. Sharifxo‘jayev M, Abdullaev Yo. Menejment. – T.: O‘qituvchi, 2002.
- MCHJ “UZSUNGWOO” qo‘shma korxonasi ma’lumotlari, hisob va hisobotlari 2012 – 2013 yil.

Internet saytlari

www.stat.uz – O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasining rasmiy sayti.

www.uza.uz - O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.

www.gazeta.uz

www.referat.uz

www.severstal.ru

